

MINIATYURA SAN'ATIDANI RIVOJLANTIRISH VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATLI
JIHATLARI

Mamadjonova Shahlo To'yichiboy qizi
Namangan Davlat universiteti
"San'atshunoslik" fakulteti talabasi

ИСКУССТВО МИНИАТЮРЫ, ЕГО РАЗВИТИЕ И ЗНАЧИМОСТЬ НА СЕГОДНЯШНИЙ
ДЕНЬ

Мамаджонова Шахла Тўйчибой доч
Наманганский государственный университет
Студент факультета "искусствоведение"

Annotatsiya: *Ushbu maqolada miniatyura san'atining tuzulishi va paydo bo'lismi tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Maqolani yoritish jarayonida miniatyura san'atining nafis va jozibador jihatlariga hamda tartib sohalariga a'lohida urg'u berilgan.*

Аннотация: В этой статье дается краткий обзор истории зарождения и появления миниатюрного искусства. В процессе освещения статьи особое внимание уделяется элегантным и привлекательным аспектам миниатюрного искусства, а также областям порядка.

Kalit so'zar: *kitob grafikasi, bezak san'ati, amaliy san'at, miniatyura*

Ключевые слова: *книжная графика, декоративно-прикладное, искусство, миниатюра*

Miniatyura (frans. miniature; lot. minium — qizil bo'yoq) — badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo"jaz) tasviriy sanat asarlari. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'zi soxta (toshqog'oz), metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va boshqalar)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham Miniatyura atamasi qo'llanadi

Badiiy Miniatyuraning kitob va portret Miniatyurasi kabi sohalari keng tarqalgan. Kitob Miniatyurasida rasmlar rangli qilib tempera, guash, yelim, akvarel va boshqa bo'yoqdar bilan qo'lda bevosa qo'lyozma kitoblar varakdariga ishlanib, undagi naqshlar (sarlavqa, unvon, lavha va boshqalar) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg'unlashgan. Miniatyura qadimdan ma'lum bo'lgan. Qadim Misr papiruslariga xira bo'yoklar bilan peroda rasmlar tekis yuzali qilib rangtasvir usulida ishlangan. So'nggi antik Miniatyuralar (4—6-asrlar) shakllar va nurhavo holati to'g'ri berilganligi bilan diqqatga sazovor. Bu usul Vizantiya Miniatyurasi (asosan, diniy qo'lyozmalar)da 10-asrgacha hukm surgan. M.gaxalq ijodiyoti xususiyatlari kirib bordi. 13—15-asrlar gotika Miniatyurasida naturani haqqoniy ifodalashga intilish kuchaydi, rasmlar matn bilan izoxlandi, shakllar jonlandi, manzara,

interyer, me'moriy hoshiyalarga keng o'rin berildi. Fransiyada yirik Miniatyura ustalaridan A. Bonevyo, Jakmar Eden va boshqa samarali ijod qildi. O'rta asrlar g'arb Miniatyurasi mahalliy maktablarning kupliga bilan ajralib turadi. Armaniston (6—7-asrlar), Buxoroda (8—10-asrlar). Gruziya (9—10-asrlar), Rossiya (8-9-asr)da Miniatyurasi rivojlandi. O'rta asrlarda Sharkda miniatyurasining o'ziga xos maktablari shakllangan (qarang Kitobat san'ati). Arab miniatyurasida bir qator maktablar ajralib turadi: Misr, Suriya, Iraq; Afg'oniston, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Buxoro, Hindiston qo'lyozma kitoblarining barcha bezaklari o'zaro uyg'unlikda bog'langan; chiziqli ritm, manzara, ranglarning nozik uyg'unligi ularning bezak tuzilishini belgiladi.

O'zbekiston hududida 20-asr boshlariga kelib miniatyura san'atining rivoji to'xtab qoldi. Usta Mo'min, A. Siddiqiy, G. Nikitin, Ch. Ahmarov, T. Muhamedov kabi rassomlar ijodida Miniatyura an'analari kuzatiladi. 70—80-yillarda Miniatyura an'alarini tiklashga urinishlar bo'ldi. Miniaturaning haqiqiy taraqqiyoti O'zbekiston mustaqilligidan so'ng amalga oshdi. Ch. Ahmarov Miniatyura san'ati an'alarini o'z ijodida davom ettirdi, uni yangicha mazmun, g'oyalar bilan boyitdi. Uning shogirdlari ustozining ishlarini davom ettirib, Miniaturani yangi bosqichga ko'tardilar; Miniatyura lokli Miniatyura qog'oz, mato, teri, charmdagi Miniatyuranini va devoriy ish> larni qamrab olib keng ko'lamli badiiy uslubiy yo'nalishga aylandi. Hozirgi kunda Miniatyura rivoji 3 yo'nalishda — aynan qo'lyozma (kitob) rasmlari (T. Muhamedov, Sh. Muhamadjonov, Miniatyura Salimov va boshqalar), lokli M. (N. Xolmatov, A. Yo'ldoshev, Sh. Shoahmedov va boshqalar) hamda M. uslubida devoriy rasmlar yaratish (T. Boltaboyev, H. Nazirov, G'. Kamolov — Kamoliddin Behzod nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotining birinchi sovrindorlari va boshqalar) bo'yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Miniatyurachi rassomlar "Ustoz" va "Musavvir" ijodiy uyushmalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida, Respublika rassomlik kollejida miniatyurachi rassomlar tayyorlanadi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi zallari, Angren ishlab chikarish birlashmasi klubi binosi devorlari ("Ulug'bek akademiyasi" nomli) va boshqa Miniatyura uslubidagi rasmlar bilan bezatilgan. Hozirda buxoroda Aka uka Miniatyurachi rassomlar Toshev Davron va Toshev Davlat ananaviy buxoro maktabi yonalishida ijod qilishyabti.

Xulosa:Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki bugungi kunda miniatyura san'ati jaxon miqyosida judda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa kitob miniatyurasi avlodlardan o'tib kelayotgani ,bugungi kunda esa yana ham rivojlanib jozibadorligi boyitilib borilmoqda. Bundan tashqari Amaliy san'at miniatyurasi ham o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Norqulov N., Nizomiddinov N., Miniaturalar tarixidan lavhalar, T., 1970; Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar, T., 1982; Sharq miniaturalar maktablari, T., 1989; Oriental miniatures 14th—17th centuries, Tashkent, 2001.
2. Abdumajid Madrahimov.
3. Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik “Musiqa” nashriyoti -2006.
4. Халилов Р. Рисунок, Издательство «Навруз» -2013.
5. Paul Thomas, Anita Taylor. Drawing, London-2011
6. Boymetov B «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.
7. . Tojiyev B, Mahkamova S. “Qalamtasvir” (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013.\
8. Brington Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014
Elektron ta'lif resurslari